

№ 3-sonli Bayonnomasidan ko'chirma

Nukus shahri

Kengash raisi: M.S. Utepbergenov - harbiy-akademik litsey direktori.

Qatnashganlar: Sh.R. Ibragimov – harbiy-akademik litsey direktorining ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar bo'yicha birinchi o'rinbosari, podpolkovnik.
A.J. Otegenov - harbiy-akademik litsey direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari
I.Dj. Matmuratov- harbiy-akademik litsey direktorining ma'muriy xo'jalik ishlari bo'yicha o'rinbosari.
Q.A.Djumaniyazov – o'quv bo'limi boshlig'i o'rinbosari, Harbiy-akademik litsey xodimlari va o'qituvchilar.

Kengash kotibi: O'quv bo'limi kotibi M. Jumabayev.

KUN TARTIBI:

6. Har xil masalalar.

a) harbiy-akademik litseyda faoliyat yuritayotgan ayrim pedagog xodimlarni mukofotlash haqida.

Tinglandi:

Ilmiy-pedagogik kengashni harbiy-akademik litsey direktori, ilmiy-pedagogik kengash raisi M. Utepbergenov kirish so'zi bilan ochib berdi va olib bordi. Bugungi ilmiy-pedagogik kengash kun tartibining bir qismi bo'lgan harbiy-akademik litseyda faoliyat yuritayotgan ayrim pedagog xodimlarni mukofotlash va rag'batlantirish haqida harbiy-akademik litsey direktori, ilmiy-pedagogik kengash raisi M. Utepbergenov so'z olib, harbiy-akademik litseyda o'quvchi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tayyorlashda jonbozlik ko'rsatgan va ilg'or pedagogik mahoratga ega, o'zining pedagogik tajribasi hamda mehnati orqali hurmatga sazovor hisoblangan ayrim pedagog xodimlarni, xususan rus tili va adabiyoti fani o'qituvchisi Utemuratova Olga Viktorovna va fizika fani o'qituvchisi Kunnazarov Abbaz Bisenbaevich kabilar 1-oktabr "Ustoz va murabbiylar" kuni munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining **"Qo'l soati"** bilan, matematika fani o'qituvchisi Mamutov Aybek Temirbaevich esa O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri **"Faxriy yorlig'i"** bilan mukofotlanganini ta'kidlab o'tib, shuning bilan birga harbiy-akademik litsey aniq fanlar kafedrasiga tegishli bo'lgan fizika, biologiya va kimyo fanlaridan laboratoriya dars mashg'ulotlarini tashkil etishda harbiy-akademik litseyga birlashtirilgan Qoraqalpoq Davlat Universiteti va boshqada ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ko'rgazmali laboratoriya dars mashg'ulotlari tashkil qilish hamda bu bo'yicha alohida videorolik tayyorlash bo'yicha topshiriqlar berib o'tib, umuman barcha fanlar kesimida o'quv yili yakuniga qadar qisqa shaklda videorolik tayyorlash kerakligini ta'kidlab o'tdi.

Ilmiy-pedagogik kengash yuqoridagi kun tartibida ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan quyidagicha

QAROR QILINDI:

1. Ilmiy-pedagogik kengashda o'qilgan bayonotlar ma'lumot uchun qabul qilinsin va qoniqarli deb topilsin.

2. Harbiy-akademik litseyning quyidagi fan o'qituvchilari 1-oktabr "Ustoz va murabbiylar" kuni munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining **"Qo'l soati"** va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri **"Faxriy yorlig'i"** bilan mukofotlansin:

- rus tili va adabiyoti fani o'qituvchisi Utemuratova Olga Viktorovna va fizika fani o'qituvchisi Kunnazarov Abbaz Bisenbaevich kabilar **"Qo'l soati"** bilan;

- matematika fani o'qituvchisi Mamutov Aybek Temirbaevich **"Faxriy yorliq"** bilan mukofotlansin.



to'g'ri

M. Jumabayev

M. Jumabayev